

IQBOL MIRZO SHE'RLARIDA RANG VA RUHIYAT MUTANOSIBLIGI

БАЛАНС ЦВЕТА И ДУХА В СТИХАХ ИКБОЛА МИРЗО
PROPORTION OF COLOR AND SPIRIT IN IQBOL MIRZA'S POEMS

Mamirova Umida Xoljigitovna

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati,

Guliston shahri, 4-mavze. 2-bosqich magistranti

Email: Umidamamirova12gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Iqbol Mirzo she'rlarida inson ruhiyati, botini, ijtimoiy hayotdagi ahamiyatining aks etishi haqida qisqacha tahlil qilingan. Ichki kechinmalar yoki peyzaj va portret chizgilarida tanlangan ranglarning, ularning ramziy ma'nolari va ijodkorning badiiy maqsadi qiyoslangan. Rangtasvirlarning she'rlardagi, lirik qahramon ruhiyatidagi, qolaversa, shoir psixologiyasidagi o'rnini ham tahlil qilingan. Ijodda rangni qo'llash orqali she'r mazmuni o'quvchiga yetkazilishini yanada osonlashtirilishi mushohada qilingan. Inson jamiyatning asosiy bo'g'iniligi va u badiiy adabiyotning obyekti eknaligi bilan ham qiymatliligiga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: obyekt, botin, zohir, badiiy maqsad, portret, peyzaj, ramz, modern, postmodern, lirika, ruhiyat, shuur, ruhiyat olami.

Абстрактный: В данной статье кратко анализируется отражение человеческой психики, души и социальной жизни в стихах Икбала Мирзо. Сравниваются цвета, выбранные в изображениях внутренних переживаний, пейзажей и портретов, их символическое значение и художественная цель автора. Также анализируется роль цвета в стихах, в психике лирического героя и в психологии поэта. Отмечается, что использование цвета в творчестве облегчает передачу содержания стихотворения читателю. Особое внимание уделяется ценности человека как главного звена общества и как объекта художественной литературы.

Ключевые слова: объект, внутренний, внешний, художественная цель, портрет, пейзаж, символ, современный, постмодерн, тексты песен, психика, сознание, психический мир.

Abstract: In this article, Iqbol Mirza's poems show a brief analysis of the human spirit, inner self, and its importance in social life. The colors chosen in interior scenes or landscape and portrait drawings, their symbolic meanings and the artist's artistic goal are compared. The role of paintings in poems, in the psyche of the lyrical hero, as well as in the poet's psychology is also analyzed. It is observed that the content of the poem can be conveyed to the reader more easily by using color in the work. Special

attention is paid to the value of human being as the main link of society and the object of fiction.

Key words: object, interior, appearance, artistic, purpose, portrait, landscape, symbol, the world of modern, postmodern, lyrics, spirituality, consciousness.

Kirish. Adabiyotda har bir aytilgan soʻzning, kiritilgan obrazning, tasvirlangan predmetning oʻz oʻrni boʻladi. Ijodkor oʻz asarida ranglardan foydalanar ekan, albatta, bu qalamga olingan rang oʻsha asarda oʻzining badiiy maʼnosiga egadir. Inson ruhiyati juda murakkab boʻlib bir qatorda eng muhim obyekt hamdir. Har bir ijodkor har qanday asarida shu murakkablikni tasvirlashga u yoki bu yoʻl bilan urinib koʻradi. Bu urinishlar vaqtida rangtasvir vositasi ham salmoqli oʻringa ega boʻlib, obrazni, lirik qahramonni, ijodkorni anglashimizga yaqindan yordam beradigan muhim vosita sanaladi. Bundan tashqari, tasvirlash yoʻsinini goʻzallashtiradi, badiiy mahoratni oshiradi, asarga qoʻshimcha maʼno qoʻshadi. Biror adib yoʻqki, oʻz asarlarida sevgi desa qizil rangni, ayriliq deganda sariqni, ona, qalb deganda oqni qalamga olmagan boʻlsa. Rang va ruhiyat soʻzlari asar tahlilida doimo yonma-yondir.

Tadqiqot obyekti va qoʻllangan metodlar

Tadqiqot obyekti sifatida Iqbol Mirzoning “Koʻnglingda nima bor, bilmayman” sheʼriy toʻplamidan “Singdan odam”, “Koʻz qarosi” kabi sheʼrlari olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyosiy, funksional tahlil usullaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Bugungi kunda yoshlar orasida sheʼr mutolaasi koʻp ham kuzatilavermaydi. Oldi-qochdi yozilgan narsalar koʻproq urf boʻlgan. Inson ongini, qalbini, xayolini anglatuvchi, anglovchi, shuurga yoʻl ochgan ijod turi sheʼr hisoblanib, buni his qilmaslik hayotda koʻp narsa yoʻqotish bilan oʻlchanadi. “Hozirgi adabiyotda voqelikni tasvirlashga qaraganda inson ruhiyatini tahlil qilishga koʻproq eʼtibor berilmoqda. Bugun badiiy asar qiziqarli voqealar tasviridan emas, inson koʻnglining mikrotahlilidan iborat”[3]. Haqiqatdan ham, vaqt oʻtgani sari adabiyotdagi mavzular koʻlami rang-baranglik kasb etib bormoqda. Har qanday asarning badiiy maqsadi inson hayoti, uning psixologiyasi, ongi, zohiri, botinini; modern va postmodern asarlar esa ong ostini ochib berishga, anglashga xizmat qilishi lozimligicha qolmoqda. Shoirilar sheʼrlari orqali his-tuygʻularini, ichki kechinmalarini yuzaga chiqaradilar. Bu haqiqatlarni oʻquvchiga yetkazishda rangtasvirning ham oʻrni beqiyos.

Iqbol Mirzo sheʼrlarida inson ruhiyati goʻzal va real ifodalanishi bilan ajralib turadi. Ijodkorning hech kimnikiga oʻxshamaydigan, oʻquvchining ich-ichiga kirib dardini topadigan sheʼrlari qatorini uzoq sanash mumkin. Ammo “Seni deb”, “Borgan sari”, “Oʻtar”, “Istaysizmi-yoʻqmi”, “Afsuski”, “Ona tuproq” sheʼrlarida koʻpga oid boʻlgan dardni, iztirobni shoir bilgandek oʻz ichidan anglatishlik, taʼsir qilishlik sezimi

kuchli. Bundan tashqari, shoir lirikasida turli ranglar ham o'z o'rnida chuqur ma'nolarni anglatishi bilan ham nufuzlidir.

Hovuzda Xudoyimning aksini ko'rgandayman,
Bulutlar va baliqlar raqsini ko'rgandayman.
Yashil quyosh, moviy tosh, safsar ko'zyosh oralab,
Odamning va Havvoning nafsini ko'rgandayman.
Yuzimga suvlar urdim, yuzimga zulm etdim,
O'zimga zulm etdim, ko'zimga zulm etdim.[4]

She'rda shundayin bir qadim holat yashaydiki, undagi lirik qahramon shu tabiatning bir bo'lagiga aylanadi. Bilmadik, bu holat asliymi, yo o'xshatishmi, ammo bu bizga ijodkorning ruhiyatida bu ranglarga o'zgacha munosabat va hayot ramzi ekanligini ko'rsatadi. She'rda o'rin olgan yashil rang-tiriklik, hayot ramzi. Qolaversa, u islom dinining ham ramzidir. Moviy rang esa insonni tinchlantirish belgisining ramzidir. Safsarning boshqa nomi qo'ng'irrang bo'lib, u barqarorlik, salovatlik ramziga ega. O'tkinchi dunyoda o'ziga jalb qiladigan narsalarning ko'pligi-yu, bunga inson osongina aldanib qolishini predmetlar va shu predmetga yarashqli, buning ustiga ko'z oldimizda aniqroq namoyon bo'ladigan, o'z ramzlariga ega ranglardan foydalanib aldanganligimizni, bu aldangin, hatto, Odam va Havvoning davridan beri sodir bo'layotganligini ta'kidlab o'tmoqda. Shoir shaxsiyatiga oid xarakter ham o'z-o'zidan rang vositasi orqali she'rga ko'chishi kuzatiladi.

“Lirik qahramon – lirik asarda kechinmalari tasvirlanayotgan kishi, shoirning umumjamiyat uchun qimmatli his va fikrlarini tashuvchi shaxsdir. U shoir shaxsi bilan estetik idealning quymasidir”[1] she'rda lirik qahramon Izzat Sulton aytganidek, dard umumiy va butunlay xususiydir. Shu boisdan ham ta'sir kuchiga egadir. Umuman adabiyotda: she'rlarda, romanlarda, dramalarda, hikiya yo qissalarda rang ichki kayfiyat, kechinmalarni ifodalash uchun yuzaga chiqarish, ya'ni tashqi ruhiyatda aks ettirishni ancha oson qiladi. Boshqacha qilib aytganda, ruhiyat olamidagi his-tuyg'ularning rangini ko'rsatishga yordam beradi.

Ko'z qarosi-yurakdagi dog'lardan,
Soch qirovi o'tli-o'tli ohlardan.
Men do'stimni alqab so'z aytay desam,
Alpomishlar bo'zlab chiqar chohlardan.[2]

Shoirning “Ko'z qarosi” she'rida ham aynan ichki his-tuyg'uni ifodalashda oq va qora rangdan foydalaniladi. Ya'ni bir inson haqida so'z borar ekan uning Ichida shunday bir dard bor va bu dardning rangi ham qora va bu rang qahramonning ko'zida aks etib turibdi. Shu boisdan ham ko'zlari qop-qora. Bu yerda ko'z qora bo'lishi tabiiy holat, ammo hamma ham ichki hisni bunga bog'lay olishdek bir badiiy tafakkur sohibi

emas. Keyingi qatorda oq rangni to'g'ridan-to'g'ri tilga olmaydi. Unga ishora qilish bilan ifodalaydi. She'rda oq-qirov. Bilamizki, qirov kuz fasli, sovuq kunlar boshlanganda tushadidan oq donalar. Bu yerda sochning oqarishi shunchaki qarilik alomati bo'lmay, bu oqlik g'am-tashvish mahsulidir. G'am bo'lganida ham sovuq va ohli g'am ekanligini ifodalash uchun predmet va rang uyg'unligi o'quvchida tasavvur uyg'otadi. Bundan keyingi qatorlarda lirik qahramonning o'yi nega qora deyish sababini ifodalash uchun xizmat qilgan. Do'st-bir insonga ma'naviy, ruhiy yaqin bo'lgan boshqa bir inson. Ijodkor aynan shu insonni maqtasa, Alpomish qabrdan emas chohdan bo'zlab chiqishini aytadi. Birinchidan, bu chohga do'st sabab tushgan degan ma'no chiqsa, ikkinchidan, Alpomishga bu maqtov go'ya haqoratdek tuyiladi degan ma'no ham mavjud. Chunki ma'lum bo'lganidek, Alpomish davridagi yoki dostonidagi do'stlikni bugungi kunning rishtasi bilan solishtirib bo'lmas darajaga yetgan va lirik qahramonimiz ham shunday g'amga botguncha biror cho'zilgan do'stlik qo'lini ko'rmagan.

“She'riy asarda aks etgan tuyg'u va qarashlar o'qirman qiyofasidagi jamiyat a'zolari bilan muloqatga kirishadi. Ijodkor ayni shu muloqat onlarida uyg'otilishi lozim bo'lgan fikr va hissiyotni bitiklar zamiriga joylash orqali ijtimoiy ongiga ta'sir ko'rsatadi.”[5] Haqiqatdan ham, ijodkor ijodiy asarlari bilan butun bir xalqqa murojaat qiladi, ta'sir o'tkazadi. Iqbol Mirzo she'rlarida ham ijtimoiylik mavjud. O'zining bir qator nazmiy va nasriy asarlarida jamiyatdagi muommalarni yoritib chiqqan. Jamiyatning bir bo'g'ini inson orqali muommo va dardlarni she'rga soladi. Xususan, “Singan odam” she'rida ham butun bir xarakterni ifodalagan.

Ko'rdim singan shohni oppoq guli bilan,
Egam goho shunday o'ynar quli bilan.
Goho urar bandasining qo'li bilan,
Odam isin xushlamaydi singan odam.[2]

Singan shoh bu yerda singan odamga ishora. Gul osha insonning qalbi bo'lib, sof qalbga ega insonlar haqida so'z bormoqda. Zero, yuragi borlarga yashahs oson bo'lmaganidek, uni atrofidagi insonlar sindirgan. “singan odam” ning ko'ngli insonlarga ishonmasligini odam isi yoqmaydi degan misra bilan izohlaydi. Ijodkor jamiyatdagi lirik qahramonga shavqat tuyg'usini qanchalik uyg'otsa, sindirguvchi shaxslarga nafrat uyg'onishga sabab bo'ladi. So'z shunday kuchga egaki, biror shaxsni korsatmasdan, tegintirmasdan ham uni sevdirishi yo nafratlantirishi mumkin.

Iqbol Mirzo she'rlarida tuyg'ular jonlidek, uni ko'radigandek, tanishdek tasvirlashi bilan o'ziga xoslikka ega ijodkor. Shu bois bo'lsa kerak she'rlari o'quvchilar, qo'shiqqa aylanganlari butun ko'nglida dardi bor, his- tuyg'usi bor insonlarning yuragiga yetib brogan desak ham bo'ladi. So'z qo'llash shoirdan qanchalik mahurat talab qilsa, she'rda rang simvollariga murojaat qilish unga yaqin

iste'dod, mehnat va tajriba talab qiladi. Chunki rangning har biri alohida so'z, mazmun, maqol, tuyg'u, o'rin egallaydi ijodkor she'rida va adabiyotda.

Xulosa qilib aytganda, Iqbol Mirzo she'rlarida g'oyaviy asosni insonning ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy holati tashkil qiladi. Botinida ilohiy iste'dodi bo'lgan odam doimo qobilyatini saqlab, uni shakllantirib turganida asarlari dardchil va o'lmas bo'ladi. Ijodkor tuyg'ularini ifodalashda to'g'ri so'z va yukli rang tanlar ekan o'quvchilarga chuqurroq ma'no yetkazishga erishadi. Yozuvchining tanlagan uslubi uning maqsadi va estetikasini ochib berishda asosiy omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Izzat Sulton Adabiyot nazariyasi Toshkent O'qituvchi nashriyoti 1980-B- 26
2. Iqbol Mirzo Ko'nglingda nima bor , bilmayman Sharq nashriyoti Toshkent 2020-B-8
3. Hamraqulov X. Ruhيات olamining estetik talqini Sharq yulduzi nashriyoti 2007-yil 5-son B- 8
4. Charos Avazova Kamalak tovushi Nurafshon business nashriyoti Toshkent 2022-B- 10
5. Q.Yo'ldoshev So'z yolqini G'ofur G'ulon nimidagi nashriyot matbaa uyi Toshkent 2018-B-132

References:

1. Izzat Sultan Literary Theory Tashkent Teacher Publishing House 1980-B-262
2. Iqbal Mirza I don't know what's on your mind, Sharq publishing house Tashkent 2020-B 8
3. Hamrakulov H Aesthetic interpretation of the world of spirit Eastern star publishing house 2007 No. 5 B-8
4. Charos Avazova Rainbow sound Nurafshon business publishing house Tashkent 2022-B-10
5. Q.Yoldoshev Soz yalkini Gofur Gulon publishing house Tashkent 2018-B-132